XALQ DEPUTATLARI JALAQUDUQ TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 26-avgust VII-20-78-1-21-K/26 Jalaquduq tumani

Jalaquduq tumanida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatlarini ko‘rsatganlik uchun tariflar miqdorini ko‘rib chiqish va tasdiqlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy byudjetlar va byudjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, byudjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarorining 8a-bandi ijrosini ta’minlash maqsadida, Jalaquduq tumani Obodonlashtirish boshqarmasi hamda Iqtisodiyot va moliya bo‘limining qo‘shma taklifi va kalkulyatsiya hisob-kitoblarini atroflicha o‘rganib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Jalaquduq tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy byudjetlar va byudjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, byudjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Jalaquduq tuman hokimligi obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘ining 1-o‘rinbosari B.Davronov va tuman moliya va iqtisodiyot bo‘limi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari O.Ashurovning 2026-yil 15-iyul sanasidagi 52-sonli qo‘shma xati ma’lumot va asos uchun qabul qilinsin.

3. Jalaquduq tumani markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik sub’ektlari bilan tuzilgan shartnomalar asosida chiqindilarni olib chiqish va

hududlarni obodonlashtirish (supirish-tozalash, gazon o‘rish) xizmatlarini ko‘rsatganlik uchun to‘lov tariflari 1-, 2- va 3-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

4.Tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarorida berilgan topshiriqlarni o‘z muddatlarida bajarish;

tumanning markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatlarini ko‘rsatish vazifalari yuklatilsin.

5. Tuman ekologiya va iqlim o‘zgarishi bo‘limi hamda Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limi, tuman obodonlashtirish boshqarmasi bilan birgalikda ekologik vaziyatni yaxshilash, chiqindilarning insonlar sog‘ligiga zararli ta’sirini oldini olish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya va ekologik holat sifatini oshirish choralarini ko‘rib borsin.

6. Tuman hokimligi matbuot xizmati (Sh.Mannopjonov) Jalaquduq tumani hududida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatganlik bo‘yicha tariflarni matbuotda e’lon qilsin.

7. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran uch oydan so‘ng kuchga kiradi.

8. Ushbu qarorning ijrosini ta’minlash tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Abdujabborov hamda tuman hokimining o‘rinbosari M.Ro‘zimatovlarga, bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (E.Qurbonov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **XAITAXUNOV SHUKUR DJALILOVICH**

Xalq deputatlari Jalaquduq tumani
Kengashining
2026-yil 26-avgustdagi
VII-20-78-1-21-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Jalaquduq tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman bo‘yicha ko‘rsatiladigan gazon o‘rish xizmatlarining xarajatlar kalkulyatsiyasi

№	Xarajat turlari	Miqdori (so‘m)
1	Ishchilar ish haqi	8 000 000
2	Ijtimoiy soliq va ajratmalar (25%)	2 000 000
3	Gazon o‘rish texnikasi (trimmer, gazon o‘rar) uchun yoqilg‘i va moylash materiallari	8 000 000
4	Gazon o‘rish texnikasini texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash	4 500 000
5	Ehtiyot qismlar va ish qurollari	2 500 000
6	Transport xarajatlari	3 000 000
7	Ma’muriy xarajatlar	2 000 000
8	Boshqa ishlab chiqarish xarajatlari	2 400 000
	Jami xarajatlar	**32 400 000**

Hisob-kitob

- Bir oyda gazon o‘riladigan hudud maydoni – **36 000 m²**.
- Jami xizmat xarajatlari – **32 400 000 so‘m**.

1 m² xizmat tannarxi

32 400 000 so‘m ÷ 36 000 m² = 900 so‘m/m²

1 m² uchun 900 so‘m

Xalq deputatlari Jalaquduq tumani
Kengashining
2026-yil 26-avgustdagi
VII-20-78-1-21-K/26 -son qaroriga
2-ilova

Jalaquduq tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman bўyicha maishiy chiqindilarni olib chiqish xizmatlarining xarajatlari kalkulyatsiyasi (Isizu NPR82L CNG Comfort chiqindi tashish mashinasi uchun (musorovoz) Davlat raqami 60 482 ZBA)

№	**Xarajat turlari**	**Miqdori (so‘m)**
1.	Haydovchi ish haqi	4 000 000
2	Chiqindi yuklovchi ishchilar ish haqi (2 nafar)	6 000 000
3	Ijtimoiy soliq va ajratmalar (25%)	2 500 000
4	Yoqilg‘i-moylash materiallari	17 000 000
5	Texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash	6 000 000
6	Maxsus avtotransport amortizatsiyasi	7 000 000
7	Shinalar va ehtiyot qismlar	2 500 000
8	Sug‘urta va boshqa majburiy to‘lovlar	1 500 000
9	Ma’muriy xarajatlar	3 000 000
10	Boshqa ishlab chiqarish xarajatlari	1 900 000
Jami		**50 400 000**

Hisob-kitob

- Bir oy davomida olib chiqiladigan maishiy chiqindilar hajmi – **700 m³**.
- Bir oylik jami xizmat xarajatlari – **50 400 000 so‘m**.

1 m³ xizmat tannarxi**50 400 000 so‘m ÷ 700 m³ = 72 000 so‘m/m³**

1 m³ tannarxi 72 000 (etmish ikki ming) so‘m.

Xalq deputatlari Jalaquduq tumani
Kengashining
2026-yil 26-avgustdagi
VII-20-78-1-21-K/26 -son qaroriga
3-ilova

Jalaquduq tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman bo‘yicha ko‘rsatiladigan xududlarni supurish, tozalash va obodonlashtirish xizmatlarining xarajatlar kalkulyatsiyasi

№	Xarajat turlari	Miqdori (so‘m)
1	Ishchilar ish haqi	8 000 000
2	Ijtimoiy soliq va ajratmalar (25%)	2 000 000
3	Supurish va tozalash inventarlari	2 000 000
4	Maxsus texnika yoqilg‘isiva texnik xizmatko‘rsatish	6 000 000
5	Transport xarajatlari	3 000 000
6	Ma’muriy xarajatlar	2 500 000
7	Boshqa ishlab chiqarish xarajatlari	1 700 000
Jami xarajatlar		**25 200 000**

Hisob-kitob

- Tozalanadigan hudud maydoni – **36 000 m²**.
- Jami xarajatlar – **25 200 000 so‘m**.

1 m² xizmat tannarxi

25 200 000 so‘m ÷ 36 000 m² = 700 so‘m/m²

1 m² tannarxi 700 (etti yuz) so‘m